

ORGANIZMDA TERI PIGMENTATSIYASINI BUZILISHI**Hakimov Dilshod Rustamovich**

Tibbiyot fanlari doktori (Phd) dermatovenerolog

Fazliddinxo'jayeva Zuxraxon Nuriddinxo'ja qizi

Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti Chiroy estetikasi fakulteti 3-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8296471>

Annotatsiya: ushbu maqolada vitiligo haqida umumiy ma'lumotlar keltirilgan. Vitiligoning kelib chiqish sabablari, organizmda kechishi, davolash va oldini olish haqida bayon etiladi. Bundan tashqari foydali maslahatlarga ega bo'lish imkoniyatiga ham ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: vitiligo, teri, pigment, melanotsitlar, parxez, vitamin, gormon, dog'lar.

Vitiligo – oq dog'lar kasalligi bo'lib insoniyatga juda uzoq o'tmishdan ma'lum, lekin uni Moxov kasalligiga o'xshab yuqadi deb hisoblab kelishgan. Shunday bo'lsa-da unung davosi mavhum kasalliklar qatorida. Terida oq dog'lkar paydo bo'lib ko'payib borishi inson tashqi ko'rinishidan ko'proq uning ruhiyatigako'proq ta'sir o'tkazib keladi. Shu sababli uni to'raligicha davolash qiyin. Bu kasallik yosh, jins, irq tanlamaydi. Statistika ma'lumotlarga ko'ra dunyoning 1 – 4% aholisi vitiligodan aziyat chekadi. Bu kasallik to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lmaganlar esa uni “yuqadi” yoki “nasl suradi” deb o'ylashadi. Vitiligo kasalligi infeksiya yoki allergik kasallik bo'lmaganligi sababli u yuqmaydi. Nasl surishini esa ba'zi mutaxassislar inkor etishadi.

Vitiligo – (lot. Vitiligo – teri usti kasalligi) – terining ayrim qismlarida normal pigmentning (teri rangini beruvchi melanin) yo'qolishi (depigmentatsiya) Bu kasallik surunkali hisoblanib, ko'pincha yoshlik paytidan paydo bo'ladi. Dog'lar kattalashib bir-biriga qo'shilib ketishga moyil, shunday bo'lsa-da b uteri o'zini sezuvchanligini yo'qotmaydi, aksincha quyosh nurlariga ta'sirchanligi oshib, tez kuyib qoladi. Bosh qismidagi terida o'zgarish bo'lsa shu yerdagi sochlar ham oqarib qoladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek kasallik ko'proq ruhiyatga ta'sir qilganligi uchun bemorlar shifokorga murojaat qilishmaydi. Har bir vaqtdan esa unumli foydalanib tezroq davo choralari ko'rish lozim. Aks holda kasallik zo'rayib, bemor ko'p stressli vaziyatlarga tushaversa, bundanda salbiy holatlarga olib kelishi ehtimoldan holi emas.

Vitiligoning kelib chiqish sabablari asosan quyidagilar bo'lishi mumkin:

- Ichki a'zolar (jigar, o't pufak, oshqozon-ichak kasalliklari)
- endokrin tizim (qalqonsimon bez funksiyasi susayishi, oshqozon osti bezi, buyrak usti bezi, gipofiz)

- gormonal buzilishlar (balog'at davri, homiladorlik, tug'ish jarayoni, laktatsiya davri, klimaks davri)
- parazitlar bo'lsa (lyambliya, ostritsa, odam askaridasi)
- immunitet yetishmovchiligi
- ekologik omillar
- betartib ovqatlanish
- vitamin, makro va mikroelementlarning t=yetishmasligi
- davomiy asabiylik
- ginetik moyillik
- kuchli quyosh nurlarining ta'siri
- kimyoviy moddalar bilan ishlash (sifatsiz pardozi vositlari fenol va uni o'z ichiga olgan reagentlar, formaldegid va boshqalar)

Mutaxassislar yuqoridagi kasalliklarning asorati, kosmetik nuqson deb hisoblanadi. Chunki teri organizmning ichki faoliyatidagi buzilishlarni aks ettiradigan ko'zgudir.

Teridagi birgina dog' orqali uni vitiligo ekanligi haqida aytib bo'lmaydi. Uning asosiy belgilari bunda dog' paydo bo'lishidan oldin teri biroz qichishishi, kepaklanishi mumkin. Lekin bu kamdan kam hollarda kuzatiladi. Oq dog'lar ko'pincha:

- yuz qismida (og'iz atrofi, quloq va burun atroflarida)
- oyoq qismida (orqa tarafda, oyoq panjasida, tizzada, sonda)
- qo'l qismida (tirsakda, bilak ichki tarafi, kaft usti, barmoqlarda)
- bel va chov qismida aniq chegaralangan holda bo'ladi, keyinchalik bir-biriga qo'shilib, butun tanani egallashi mumkin. Yuz va bosh qismidagi sochli joylarda dog' paydo bo'lsa o'sha yerdagi soch, soqol, mo'ylovlar oqaradi. Ko'p hollarda vitiligo turli dermatitlar bilan kechadi. Dog'lar paydo bo'lgan joylarda terlash jarayoni buziladi. Jigarning antitoksinlik funksiyasi susayadi. Shu belgilarga asoslanib dastlabki xulosalar beriladi.

Vitiligo rivojlanishining o'ziga xos bir nechta bosqichlari bor:

1. Progressiv bosqich: 3 oy davomida dog'lar sezilarli kattalashadi, yangi dog'lar paydo bo'lish soni ortib boradi. Bu bosqich sekin rivojlanuvchi bosqich hisoblanadi. Bu esa kasallikning tabiiy rivojlanishidir.

2. Dastlabki bosqich: bunda terida bitta nuqtaga o'xshash kichkina dog' paydo bo'ladi. Keyinchalik rivojlanishiga qarab bosqichlarga o'tishi mumkin.

3. Statsionar bosqich: terida bitta dog' bo'ladi. Uzoq vaqt bu dog' kattalashmaydi va ko'paymaydi.

4.Repigmentatsiya bosqichi: bu bosqichda ma'lum bir dorini ichish natijasida kelib chiqadigan dog'larning spontan shakli kuzatiladi.

Bemorarda ushbu bosqichlarning qaysi biri kechayotganini aniqlash uchun quyidagi diagnostik tekshiruvlar qo'llaniladi:

- 1.Teri biopsiyasi
- 2.Gistologik tekshiruv
- 3.Qonni umumiy tahlili
- 4.Vuda lampasi

Bu kasallikni albinizm, melanoma, leykoderma, atopik dermatitdan butunlay farqlab olish shart.

Bemorni davolashda avvalo uni ruhiy holatini yaxshilash kerak. Shunda ko'rilayotgan davo choralari angha samarali bo'ladi. Tibbiyot kun sayin rivojlanib borar ekan , vitiligononi davolashni ham zamonaviy usullari yaratilmoqda.

- 1.Lazeroterapiya-teri surtma dori va lazer nurlari yordamida o'z rangiga qaytariladi.
- 2.Mezoterapiya-dorilar bilan dog' va uning atrofidagi terining ustki qismiga ukol qilinadi.
- 3.Vitaminoterapiya-E, C, alfa lipolik kislota asosan shu guruh vitamunlari davo samarasini oshiradi. Tiamin, askorbin kislota, pantoten kislota, riboflavin, bundan tashqari mis, ruh, sink temir moddalarini ham qo'llasa bo'ladi.
- 4.Melanositar transplantatsiya-bemorning shikastlanmagan sog'lom teridan pigment hujayralarni shikastlangan teriga o'tkazish. Bu jarayonda o'sha yerning o'ziga mahalliy narkoz beriladi.
- 5.UV nurlariterapiyasi (UVA, UVB)
- 6.PUVA terapiya (Psoralen + Ultra violet A)
- 7.Fototerapiya

Vitiligoni davolashda ultrabafsha nurlari qo'llanilganligi uchun shifokorlar fotosensibilizatsiyalovchi vositalar qabil qilishni buyiradi. Organizmga tushganda teridagi melanotsitlar ning nurga ta'siri oshadi.

Vitiligo paydo bo'lgandan keyin ham uni ko'payib ketmasligini oldini olish uchun bemorlarga stressli vaziyatlardan tiyilish, quyoshda uzoq yurmaslik, sifatsiz kosmetik vositalar yoki parvarish mahsulotlaridan foydalanmaslik, tor kiyimlar, oyoq kiyimlar kiyimaslik, dog'larning ortiqcha ishqalanishiga yo'l qo'ymaslik, terini siqib qo'yishi mumkin bo'lgan taqinchoqlarni taqmaslik kerak. Ovqatlanish tartibiga qat'iy rioya qilish zarur.

Har bir kasallikning xavfli jihati bo'ganidek bu kasallikni ham xavfsizlikdan holi emas. Masalan, vitiligoni davolashda to'g'ri usullar tanlab, vaqtida davolanmasa yoki bemor vaqtida murojaat etmasa, uzoq vaqt quyosh nuri ta'sirida yursa, teri kuyadi. Bundanam xavflirog'I teri saratoniga olib kelishi mumkin.

Vitiligoga chalinish xavfi ostida turuvchi odamlar ham

-stressga chidamsiz odamlar

-irsiy moyilligi bor odamlar

-kimyoviy moddalar bilan doimiy ishlovchi odamlar

-autoimmun kasalliklariga chalingan odamlar bu kasallikga chalinishi xavfi yuqori.

Foydali maslahatlar: vitiligoda parxez ancha samara beradi. Masalan, kunlik menyuda misga boy mahsulotlar ko'p bo'lishi kerak. Dengiz mahsulotlari, olma, pomidor, karam. Tarkibida ruh saqlagan guruch, sulii yormasi, makkajo'xori ham tavsiya etiladi. Lekin yog'li, qovirilgan, achchiq, dudlangan taomlar, kolbasa, sossiska, fast food, gazli, spirtli ichimliklar iste'mol qilmasligi lozim.

Bemorda davolashda kasallikning oldini olishda xavfli kasallikga aylanmasligida asosan 3ta eng muhim jihat bor. U ham bo'lsa takror-takror ta'kidlab o'tilgan quyoshda uzzoq yurmasli, stressdan saqlanish va sog'lom turmush tarziga rioya qilish. Shu 3 jihatga qat'iy amal qilinsa kasallik tez va oson yengib o'tiladi.

Vitiligo bu albatta bir umrlik hukm degani emas. Bir muolaja kamlik qilsa yoki samara bermasa, boshqa zamonaviy usullar ham mavjud. Eng asosiysi insonning o'ziga bo'lgan ishonchi va qanday holda bo'lsa ham o'z tanasini qabul qila olishi eng birinchi o'rindagi davodir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://avitsenna.uz/oq-doglar-davosi/>
2. <https://med24.uz/uz/bolezni/vitiligo>
3. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Vitiligo>
4. Ivanov O. L. Teri va venerik kasalliklar. 142-143 betlar.
5. V. A. Volnuxin, S.R. Uts. Dermatologiyada kvant (lazer) terapiyasi. 14-bet

